

Parrandachilik fermasi

- Har kuni do'konlarga ko'p miqdorda yangi tuxum keltiriladi. Nima deb o'ylaysiz, ular qayerdan olinadi?
- Qanday uy parrandalarini bilasiz?
- Tovuq boqqan odam tuxumdan boshqa yana qanday foyda oladi?

Tuxumlar parrandachilik fermalarida yetishtiriladi. Yirik parrandachilik fermalarida tovuqlar bir necha pog'onali kataklarda saqlanadi. Har bir katak uyalarga bo'lingan, unda tuxum qo'yadigan 3-5 tadan tovuq saqlanadi, panjara ortida esa oxurlar va suvdonlar o'rnatilgan.



Tovuqlarni ko'paytirish va parvarishlash uchun ularni don aralashmasi, maydalangan sabzi, o't-o'lalnlar, omixta yem bilan boqish zarur.

Omixta yem – maxsus aralashtirilgan yem bo‘lib, uning tarkibiga ozuqalarning bir nechta turi kiradi. Tovuqlar uchun omixta yem, asosan, bug‘doy, makkajo‘xori, tariq donlaridan iborat bo‘ladi.

Bitta katta tovuq bir martada 100-120 g omixta yem yeydi. Parrandaga, odatda, kuniga 2 marta ozuqa beriladi.

Tovuqlarga faqat toza suv beriladi. Kataklar muntazam ravishda go‘ngdan tozalanadi, oxurlar va suvdonlar yuvib turiladi.

Parrandachilik fermalarida zootexnik va veterinarlar ishlaydi. Ularning vazifasi – parrandalarning muntazam ravishda tuxum qo‘yishiga erishish. Buning uchun tibbiy tartib-qoidalar majmui ishlab chiqiladi – parrandalar emlanadi, virusli va bakteriologik kasalliklari davolanadi.

Kataklar ichida ma‘lum harorat va namlik saqlanadi. Bu mikroiqlim ko‘rsatkichidir. U qat’iy belgilangan bo‘lishi zarur, chunki parrandaning sog‘ligi shunga bog‘liq.

Tovuq tuxum qo‘yganidan keyin, tuxum qiya yuza bo‘ylab maxsus to‘plagichga dumalab tushadi. Keyin tuxumlar ishchilarga saralash uchun jo‘natiladi. U yerda tuxumlarning tozaligi va po‘chog‘i butunligi tekshiriladi. Tuxumlar sifat hazoratidan o‘tadi, hajmi va og‘irligi o‘lchanadi. Shundan so‘ng qutilarga joylanadi va omborga jo‘natiladi. Nihoyat, bu yerdan tuxumlar do‘konlarga olib ketiladi.





**Qushlar uchun donxo'rak tayyorlang.
O'zingizga yoqqan usulni tanlang yoki
yangisini o'ylab toping.**






Donxo'rak!



1



2



3



4



5



6



7



8



9



10



11

